

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2018-YIL 27-  
IYULDAGI “TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUQUQLARI VA  
QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISH TIZIMINI YANADA  
TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”GI PF-5490-  
SON FARMONIGA QO‘SHIMCHA KIRITISH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi [Qonuni](#) ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5490-son Farmoniga [2-ilova](#) quyidagi mazmundagi 17<sup>2</sup>-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

17 <sup>2</sup> .	Asosli ma’lumotlar bo‘lganda ko‘p kvartirali uylardagi joylarning o‘zboshimchalik bilan qayta qurilishi va (yoki) qayta rejalashtirilishi holatlarini tekshirish hamda boshqarish organlari tomonidan ko‘p kvartirali uylarda yuzaga kelgan avariya vaziyatlarini bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rilganligi ustidan nazorat qilish.	O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ko‘p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasini nazorat qilish inspeksiyasi	1 kundan oshmagan holda
-------------------	--	--	-------------------------

”.

2. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 4-avgust,  
PF-182-son

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.08.2022-y., 06/22/182/0710-son)*